

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini
gumanizatsiyalash masalalari 218

I.A.Asatulloev

Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili 223

D.Sh.Sagdullayeva

Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari 228

S.S.Sodiqov

Yoshlarda faol pozitsiyani shaklantirishning milliy-tarixiy asoslari 234

I.A.Hamdamov

Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi 240

H.X.Xakimov

Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов

Узбекистана в период первого ренессанса 245

Q.H.Boymirzayev

Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi
ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni 252

B.M.Qandov, N.A.Abduveita

Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari 256

E.T.Qalqanov

Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 261

Sh.X.Tog'ayev

Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning
manbalari va vositalari 266

I.A.Ikramov

Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi 272

V.B.Zayniddinova

Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi 277

J.M.Miraxmedov

Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili 281

B.X.Mirzaraximov

O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining
ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari 285

D.E.Normatova

Ekzistensializm – hayot falsafasi 293

SIYOSAT**I.A.Raximov**

"Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos
mexanizmlari" 297

M.H.Rustamaliyev

Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi 302

N.B.Dexkanov

Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni 306

M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev

Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi 312

J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva

Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish 323

J.K.Yusubov, D.A.Xusanova

Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining
muhim omili 327

TARIX**A.Sharafiddinov**

Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan
(XIX asr oxiri XX asr boshlari) 331



UO'K: 338.48:316.334(548.1)

**O'ZBEKİSTON YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA TURİZM MADANIYATI
RIVOJLANISHINING İJTİMOİY-SİYOSIY VA MA'NAVİY OMILLARI**

**SOCIO-POLITICAL AND SPIRITUAL FACTORS OF TOURISM CULTURE DEVELOPMENT
AT A NEW STAGE OF UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT**

**СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ДУХОВНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ
ТУРИЗМА НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА**

Mirzraximov Baxtiyor Xoshimovich 

Farg'onan davlat universiteti falsafa kafedrası katta o'qituvchisi(PhD)

Annotatsiya

Maqolada jahon turizm madaniyati rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari ijtimoiy so'rovnomalalar natijasi asosida tahlil qilingan. Shuningdek, turistlar sayohat yo'nalishi va maskanlarini tanlash, amalga oshirish paytida o'z xulq-atvollarini, turistik xizmatlarga nisbatan afzalliklar tizimi, sayohat turi hamda davomiyligi bilan bog'liq odatlarini shiddat bilan o'zgarib ketishiga sabab bo'lmoqdalar. Turizmnning innovatsion shakllari (sayohatni mustaqil rejalashtirish va amalga oshirish, an'anaviy vositachilarini inkor qilish) hozircha alohida segment sifatida namoyon bo'lishiga oid xulosalar asoslangan.

Аннотация

В статье проанализированы социально-политические и духовные факторы развития мировой туристской культуры на основе результатов социальных опросов. Туристы также стремительно меняют свое поведение в процессе выбора маршрута и места путешествия, систему предпочтений по отношению к туристским услугам, привычки, связанные с типом и продолжительностью поездки. На этом основаны выводы о том, что инновационные формы туризма (самостоятельное планирование и осуществление путешествий, отказ от традиционных посредников) в настоящее время проявляются как отдельный сегмент.

Abstract

The article analyzes the socio-political and spiritual factors of the development of world tourism culture based on the results of social surveys. Tourists are also rapidly changing their behavior in the process of choosing a route and place of travel, the system of preferences in relation to tourist services, habits related to the type and duration of the trip. This is the basis for the conclusions that innovative forms of tourism (independent travel planning and implementation, rejection of traditional intermediaries) are currently manifested as a separate segment.

Kalit so'zlar: turizm madaniyati, sayohat yo'nalishi, ta'lif turizmi, turizm etikasi, safar odobi, ziyorat, yoshlar turizmi, turistik dastur

Ключевые слова: культура туризма, направления путешествий, познавательный туризм, этика туризма, этикет путешествия, паломничество, молодежный туризм, туристская программа.

Key words: tourism culture, travel direction, educational tourism, tourism ethics, travel etiquette, pilgrimage, youth tourism, tourist program

KIRISH

Mamlakatimizda turizm madaniyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri bu turizm borasida yuqori sifatlari ta'lif berish va mutaxassislar tayyorlashdir. Turizm sohasida ta'lif jarayonini tashkil qilish hozirda tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biridir. Unda gumanitar, ijtimoiy, geografik, iqtisodiy va boshqa fanlar mujassam bo'lganligi bois ko'pqirrali fanlar doirasiga kiradi. Turizm sohasida ta'lif olishga katta turtki egiluvchan va turli ta'lif tizimini kiritish hisoblanadi. Mehnat bozorida katta raqobatchilikka "tishi o'tadigan" turizm sohasidagi mutaxassisiga talab o'sib bormoqda. Turizm sohasi mutaxassisini zamonaliv modeli o'z ichiga quydagilarni oladi: psixologik komponentlar, turizmga oid yo'nalishlar bo'yicha fanlararo bilimlarga egalik, ularni amalda qo'llay bilish, professional bilim va ko'nikmalar, zamonaliv kompyuter texnologiyalari bo'yicha ko'nikmalar, bir necha chet tillarini bilish. Shu sababli, har yo'nalishdan umumiyl tushunchaga ega bo'lish yetarli emas, perspektiv sohaviy ta'lif tizimini yaratishga talab ortib bormoqda. Chunki zamonaliv

mutaxassislarga fanlararo bilimlar, yagona ta'lim standarti bilan bog'liq professional ko'nikmalar ham zarur.

MATERIALLAR VA METODLAR

Mamlakatimizda turizm va xizmatlar sohasini rivojlantirish va turizmni dunyoning o'nta rivojlangan mamlaatlar qatoriga qo'shish borasida strategiyalar amalga oshirilmoqda. Buni oxirgi paytlarda qabul qilinayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir necha farmon va qarorlaridan ham ko'rish mumkin. Mazkur masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861- sonli «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil yanvardagi PF-5308-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida, 2018-yilni «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirilishi ko'zdautilgan Davlat dasturida, 2017-yil 16-avgustdagい PQ-3217-sonli «2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha bиринчи navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorida, 2018-yil 3-fevraldagい «O'zbekiston Respublikasi turizm soalohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-sonli Farmonida, 2018-yil 7-fevraldagい «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida ham katta e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 31-dekabr kuni parlament palatalari rahbarlari, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar mutasaddilari bilan uchrashib, yil yakunlarini sarhisob qildi va 2020-yildagi muhim vazifalarni belgilab berdi. Mazkur yig'ilishda 2020-yilda mamlakatimizga turistlar oqimini 7,5 millionga yetkazish va xizmatlar eksportini 1,5 milliard dollardan oshirish bu sohadagi eng ustuvor vazifaligi ko'rsatib o'tildi[1].

Turizmnинг O'zbekiston hududida tarixiy rivojlanish xususida ayrim tadqiqotlarda to'xtalib o'tilgan bo'lsa-da [2], O'zbekiston Respublikasida 2016-yildan to hozirgi kunga qadar davom etib kelayotgan turizm sohasida «yangi davr» atamasini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur sohada qisqa davr mobaynida olib borilayotgan jadal islohotlar zamirida chuqr o'ylangan iqtisodiy siyosat va huquqiy asoslar mavjud, degan fikr ilgari suriladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi ikki tomonlama shartnomalar bazasi yildan-yilga o'sib borayotganligi diqqatga sazovordir. Xususan, 2013-yilda ularning soni 45 tani tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda ushbu ko'rsatkich umumiy hisobda 60 taga yetdi. Mazkur turdagи shartnomalar tahlili mobaynida ularning umumiy xususiyatlari ko'rsatilib, mazkur shartnomalar ularning mazmuni mohiyati va tartibga solinishi jihatidan ikki guruhga ajratilgan.

Birinchi, ikki tomonlama turizmni rivojlantirishga oid hamkorlik shartnomalari hamda gumanitar hamkorlikka oid munosabatlarni tartibga solingan shartnomalar;

Ikkinci, hamkorlikka oid shartnomalarda turizm xizmatlar sohasiga oid alohida tarzda tartibga solinuvchi O'zbekiston Respublikasining har ikki tomonlama shartnomalari.

Bugungi kunda mamlakatimizda Birlashgan Millatlar Jahon turizm tashkiloti tomonidan 2017-yilda imzolangan «Turizm etikasi to'g'risidagi»gi Konvensiyasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Turizm etikasi Kodeksining asosiy tamoyillariga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Xalqaro hamjamiyatda turizm sohasining huquqiy asoslari takomillashib borayotganligini hisobga olib, Birlashgan Millatlar Jahon turizm tashkiloti tomonidan ishlab chiqilib, davlatlar muhokamasiga taqdim etilgan «Turistlarni muhofaza qilish hamda turistik xizmatlarning xalqaro huquq va majburiyatları to'g'risida»gi Konvensiya loyihasi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu Konvensiyada xalqaro turizmni rivojlantirishga oid mehmon va mezbon davlatlar davlatlar oldidagi aniq vazifalarni belgilab berdi. Konvensiyada mamlakatlar va turistik faoliyat olib boruvchi tashkilotlarning dolzarb masalalardagi o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi «Hard Law» («Qattiq huquq») xarakteriga ega kuchli huquqiy asos bo'la oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Insonlarning o'zga millat va elatlarning yashash tarzi, urf-odat va an'analari, tarixi va madaniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishi mana bir necha ming yildirki ularni sayohat qilishga undovchi asosiy motivlardan biri hisoblanadi. Bugun xalqlar va millatlar o'rtasidagi do'stlik, har sohada o'zaro hamkorlik, dam olish, hordiq chiqarish va turizm uchun yaratilayotgan qulaylik va imkoniyatlar insonlarning sayohatga bo'lgan qiziqishlarining ortishiga o'zining katta ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Butunjahon turizm tashkilotining bergan statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2016-yilda dunyo bo'ylab sayohat qilgan xalqaro turistlar sonining 1 milliard 235 million kishiga yetganligi[3],

FALSAFA

ular orasida yoshlar 23 foizini tashkil etganligi^[4] turizm allaqachon turistlarning barcha segmentatsiyasini qamrab olganligidan dalolat beradi. «Shu asosda 2025-yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyoohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollarga yetkazish lozim»^[5] 154, ya'ni turizmning nafaqat milliy iqtisodiyotimizda tutgan o'rni, balki uning ijtimoiy faoliyat va ong shakli sifatidagi madaniy xususiyatlarini xalqimiz ongida qaror toptirish muammosini ham tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, «turizm respublika iqtisodiyotining strategik sektoriga»^[6] aylanganligi belgilanib, biz tadqiq qilayotgan muammoning yechimi asosida «turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm madaniyatini yaratish»^[7] davlatimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

Xalqimiz turizm madaniyatini hozirgi bosqichda rivojlantirishning asosiy obyekti yoshlardir. Yoshlarning turizm etikasi, safar odobi, ziyorat maqsadlari borasida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, ularning turizm borasidagi bilimlarini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, tarixiy obidalarga nisbatan munosabatlarini o'zgartirish turizm madaniyatini rivojlantirishning muhim omiliidir.

Yoshlar turizmi bugungi kunda turizmning jadal sur'atlarda rivojlanayotgan turlaridan biri bo'lib, keng ma'noli tushuncha hisoblanadi. Turli xorijiy adabiyotlarda yoshlar turizmiga turlicha ta'rif berilgan va Butunjahon turizm tashkiloti ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: «16-29 yosh oralig'idagi shaxslarning odatdagи yashash muhitidan boshqa xalqlar madaniyati, hayot tarzi, rasmiy va norasmiy tarzda bilim olish maqsadidagi bir yildan oshmagan sayohatlariga aytildi»^[8]. Bugun dunyo bo'y lab sayohat qilayotgan yoshlar turli maqsadlarda safar qilishayotgan bo'lib, maqsadlaridan kelib chiqqan holda ularni quyidagicha turlarga ajratish mumkin:

Yoshlarda turizm madaniyatini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri ta'lim turizmidir. Ta'lim turizmi yoshlarning o'z bilim doiralarini kengaytirish, bilim olish maqsadida xorijiy oliy o'quv yurtlariga borib tahsil olishi, institutlar doirasida tuzilgan xalqaro talabalar almashinuv dasturlarida qatnashishlari kabilarni o'z ichiga oladi. Ta'lim turizmida o'quvchilar va talabalar, xodimlar o'z bilim va malakalarini oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Madaniy-ma'rifiy turlar, sanat va hunarmandchilik turlari, ekoturlar, diniy, sog'lomlashтиrish turlari, sarguzasht turlar, shuningdek, festivallar, konferensiya, seminar-treninglar, muzeylar bo'y lab ekskursiyalar tashkillashtirilishi ushbu jarayonning xarakterli jihatiga kiradi.

Ta'kidlash kerakki, ta'lim turizmi taraqqiyot ko'satkichlari bo'yicha Buyuk Britaniya yetakchi o'rinda turadi. Bu yerga yiliga kamida bir million kishi keladigan bo'lsa, 2017-2018-yilda 750 000 talaba (sayyooh) tashrif buyurgan va ulardan o'rta hisobda 6 mlrd dollar foyda olingan. Yana bir misol qilib, Isroil davlatini olish mumkin. Bu yerda o'qimoqchi bo'lgan chet el fuqarolarining biror kishisi yahudiy bo'lsa, grant asosida o'qish imkoniyati beriladi. Finlyandiyada o'qish faqat davlat tomonidan grant asosida, joylashish, ovqatlanish va boshqa xarajatlar esa talabalarning o'z hisobidan amalga oshiriladi^[9]. Ta'lim turizmi yo'lga qo'yilganda o'z-o'zidan til o'rgatish kurslariga, ovqatlanish shaxobchalariga, talabalarning o'qishdan tashqari paytalarida dam olish maskanlariga borib, dam olishlariga, madaniy hordiq chiqarish (muzey, teatr, kino, konsertga borish) kabilarga **talab va ehtiyoj ko'payadi**.

Demak, turizm madaniyati deganda, xalqaro universitetlar bilan hamkorlikda loyihalari olib borish, xalqaro konferensiylar o'tkazish, sport musobaqalarida qatnashish kadrlar almashinuvini yana-da rivojlantirishga oid bilimlarga ega bo'lish tushuniladi. O'zbekistonda ta'lim turizmining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy o'sishiga katta turtki bo'ladi hamda uning rivojlangan mamlakatlar qatorida turishi uchun imkon yaratiladi. Xorijiy mamlakatlar bilan tezkor zamonaviy ma'lumotlar almashinuv tizimi shakllanadi, ijtimoiy, iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi va eng asosiysi, insonlarning bilimdonlik va ma'naviy darajasi oshib, xalqlarni birlashtiradi.

Volontyorlik turizmi esa yoshlar orasida hozirda eng rivojlanayotgan turizm turlaridan biri bo'lib, ko'ngilli ravishda hech qanday iqtisodiy manfaatni ko'zda tutmagan holda, volontyorlik tashkilotlariga uyushgan holda ko'ngillilik dasturlariga qatnashish hisoblanadi.

Madaniy almashinuv. Ushbu tur doirasida nafaqat talabalar, balki yosh san'atkorlar, sportchilar, madaniyat xodimlari o'ttasida almashinuvni o'z ichiga olib, xalqlar, millatlar o'ttasidagi o'zaro o'xshashliklarni va farqlarni aniqlash, tanishish hamda almashinishlardan iborat.

Sport va sarguzasht turizmida yoshlar xalqaro darajadagi sport musobaqalarida qatnashish va tomosha qilish, sarguzashtli turizm turlariga qatnashish, aktiv dam olish uchun sayohat qilishadi.

Hordiq chiqarish uchun yoshlar tinch va osudalikda, asosan tabiat qo'ynida bo'lishni, o'zlarini yoqtirgan mashg'ulot bilan shug'ullanish va o'zlarini uchun yangiliklarni kashf etish uchun sayohat qilishadi. Yildan-yilga xalqaro darajada sayohat qilayotgan yoshlar soni tobora ortib borayotgan bo'lib, ularning tashrif buyurgan mamlakatlardagi sarflari miqdori ham o'sib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 1991-yilda yoshlar turizmi umumiyligi turizm bozorining 15 foizini, 1995-yil 23 foizni, 2000-yilda 20 foizini, 2005-yilda esa 24 foizini va 2020-yilda esa 300 million kishiga yetishi bashorat qilinmoqda[1].

Yuqoridagilarga asoslanib aytish mumkinki, yoshlar turizmining har bir turi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, yoshlarning turizm madaniyati egasi sifatida sayohatlarini amalga oshirishda muhim rol o'yndaydi.

Turizm sohasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilishi, mazkur mutaxassislar O'zbekistonda ham talab kuchayishiga olib keldi, bunda mutaxassislarining tayyorgarligi mazkur tarmoq talabini oshirishga olib kelishi shart. Bunday holat turizm sohasiga oid turli yo'nalishlarda ta'lim beruvchi oliygohlar, kollejlar, litseylar yaratilishiga sabab bo'lib, bundan maqsad ta'lim kurslari va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlarni tayyorlashdir.

Turistik xizmatlar sohasi mintaqada turistik biznesning rivojlanishi va turistik xizmatlar sifatiga ta'sir etuvchi majmuali turistik infratuzilmani o'z ichiga qamrab oladi. Bunda «Qo'shimcha turistik xizmatlar» tarmog'i iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan o'zaro ta'sirini (moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi) belgilaydi.

Boshqa sohalarning ta'siriga qaramay, turizmnинг samaradorligi tashkiliy-iqtisodiy sharoitlarning ta'minlanishiga bog'liq, ular esa mintaqaviy turizm sohasini idora etishdagi davlat siyosati masalalarini yechish asosida erishilishi mumkin.

O'zbekistonda turizm madaniyatini rivojlantirish, fuqarolarda turistik ongni shakllantirish hamda soha rivojiga ijobiy ta'sir etuvchi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy qarashlar nuqtai nazaridan yondashuv asosida Farg'ona viloyatining tanlangan hududlari doirasida 970 nafar respondentni jalb qilgan holda so'rovnoma o'tkazildi. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari mamlakatimiz hududlariga tashrif buyuradigan turistlarning (ichki va xorijiy) talab va taklif munosabatlarini hisobga olgan holda quyida berilgan turistik yo'nalish va maqsadlar asosida shakllantirilgan.

So'rovnoma o'tkazishdan maqsad – turistik xizmatlarga bo'lgan talabni istiqbolda qanday to'yintirish hamda holat va xohishlarni e'tiborga olgan holda tadbirkorlar tomonidan xizmatlar taklifini qanday ko'rinishlarda taqdim etish lozimligini umumiyligi holda o'rganishdan iborat.

So'rovnoma hududlar bo'yicha (Farg'ona viloyatining 5 ta shahar va tumanlarida) o'tkazilgan. O'tkazilgan so'rovnomada 30 yoshgacha bo'lgan respondentlar 495 nafarni (50,4 %), 31 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan respondentlar 145 nafarni (16,9 %), 41 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan respondentlar 165 nafarni (17,4 %), 50 yoshdan yuqori bo'lgan respondentlar 180 nafarni (15,3 %) tashkil etib, ularning jins bo'yicha nisbati 1:1 nisbatda olindi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra respondentlarning 205 nafari (25,0 %) ekskursiya xizmatlaridan, 211 nafari (22,5%) sport turizmi xizmatlaridan, 301 nafari (28,8 %) davolanish (rekreatsiya) xizmatlaridan va 220 nafari (23,7) qo'shni davlatlardagi qarindoshlarini ko'rish uchun qulaylik yaratilishini xohishini bildirgan. Ular tomonidan ushbu xizmat turlarining hududlar kesimidagi iste'moli bo'yicha savolga 198 nafari (22,0 %) Farg'ona mintaqasida, 200 nafari (25,0 %) Samarqand mintaqasida, 327 nafari (38,1 %) Toshkent mintaqasida, 101 nafari (10,2 %) Buxoro mintaqasida va 50 nafari (4,7 %) Xorazm mintaqasida turistik xizmatlardan foydalanish xohishini bildirgan. Albatta, bir mintaqaga hududida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari boshqa mintaqalarda o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan farq qiladi, bundan tashqari respondentlarning mintaqalarning turistik salohiyatidan qay darajada xabardorlik holati ham so'rovnoma natijalariga o'z ta'sirini o'tkazadi (3.1-jadval).

So'rovnoma natijalarini tahlil qilish jarayonida ishtirok etgan respondentlar tomonidan turizm xizmatlarining sifati belgilangan narxlarga mutanosiblik darajasi hamda fuqarolarning real daromadlari, ularning imkoniyatlari tahlil qilindi.

Aholining turizm xizmatlaridan foydalanishda ko'rsatiladigan xizmatlar taklifi, ularning narxlar va sifat mutanosibligini saqlash orqali turizm xizmatlari bozorida iste'molchilar sonini ortishi mumkinligini ko'rsatadi. So'rovnoma orqali mamlakatimizda turizm madaniyatini, turistik ong va turistik savodxonlik qanchalik shakllanganligi ko'rish mumkin.

FALSAFA

**Turizm xizmatlariga bo‘lgan talabni xizmatlar yo‘nalishi va hududiy kesimda o‘rganish
bo‘yicha so‘rovnama natijalari**

Yosh guruhlari	Soni	Turistik xizmatlari yo‘nalishlari				Mintaqalar				
		Ekskursiya	Sport	Davolanish	Qarindoshlarni ko‘rish uchun	Farg‘ona	Samarkand	Toshkent	Buxoro	Xorazm
Jami respondentlar	970	205	211	301	220	198	200	327	101	50
30 yoshgacha	595	185	200	45	165	105	150	240	75	25
shundan:										
Erkaklar	315	55	160	25	75	70	55	155	25	10
Ayollar	280	130	40	20	90	35	95	85	50	15
31-40 yoshgacha	200	60	30	55	55	30	65	80	10	15
shundan:										
Erkaklar	100	35	20	30	15	20	25	40	5	10
Ayollar	100	25	10	25	40	10	40	40	5	5
41-50 yoshgacha	205	20	15	125	45	65	15	85	30	10
shundan:										
Erkaklar	90	10	15	40	25	25	5	40	20	0
Ayollar	115	10	0	85	20	40	10	45	10	10
50 yoshdan yuqori	180	30	20	115	15	60	65	45	5	5
shundan:										
Erkaklar	85	10	10	55	10	40	20	15	5	5
Ayollar	95	20	10	60	5	20	45	30	0	0

So‘rovnama natijalariga ko‘ra, respondentlarning 390 nafari (33,1 %) turizm xizmatlari bozorida xizmatlar narxining sifatga mosligini, 270 nafari (22,9 %) xizmatlar narxining sifatga mos emasligini, 500 nafari (42,4 %) narxlarning ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatiga nisbatan qimmatligini, 20 nafari (1,7 %) esa narxlarning sifatga nisbatan arzonligini ko‘rsatib o‘tishgan.

Respondentlarning 785 nafari (66,5 %) turistik xizmatlardan foydalanish uchun daromadlar va imkoniyatlar yetarli ekanligini, 395 nafari (33,5%) esa, aksincha yetarli emasligini bildirgan (3.2-jadval).

So‘rovnama natijalariga ko‘ra respondentlarning 390 nafari (33,1 %) turizm xizmatlari bozorida xizmatlar narxining sifatga mosligini, 270 nafari (22,9 %) xizmatlar narxining sifatga mos emasligini, 500 nafari (42,4 %) narxlarning ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatiga nisbatan qimmatligini, 20 nafari (1,7 %) esa narxlarning sifatga nisbatan arzonligini ko‘rsatib o‘tishgan.

Respondentlarning 785 nafari (66,5 %) turistik xizmatlardan foydalanish uchun daromadlar va imkoniyatlar yetarli ekanligini, 395 nafari (33,5%) esa, aksincha yetarli emasligini bildirgan (3.2-jadval).

Turizm xizmatlariga bo‘lgan talabni xizmatlar bahosi va moliyaviy imkoniyatlar bo‘yicha baholashning so‘rovnomalar natijalari

Yosh guruhlari	Soni	Xizmatlar mosligi				Moliyaviy imkoniyatlar	
		Ha	Yoq	Narxi sifatiga nisbatan qimmat	Narxi sifatiga nisbatan arzon		
Jami respondentlar	970	390	270	500	20	785	395
30 yoshgacha	595	195	145	240	15	385	210
shundan:							
Erkak	315	100	90	115	10	210	105
Ayollar	280	95	55	125	5	175	105
31-40 yoshgacha	200	65	20	115	0	140	60
shundan:							
erkak	100	30	10	60	0	75	25
ayollar	100	35	10	55	0	65	35
41-50 yoshgacha	205	70	50	85	0	135	70
shundan:							
Erkak	90	35	25	30	0	55	35
Ayollar	115	35	25	55	0	80	35
50 yoshdan yuqori	180	60	55	60	5	125	55
shundan:							
Erkak	85	15	35	30	5	60	25
Ayollar	95	45	20	30	0	65	30

So‘rovnomalar natijalariga ko‘ra, turizm xizmatlariga talabni aniqlashda xizmatdan foydalanuvchilar guruhi va sarflanadigan mablag‘lar ulushi bo‘yicha tahlil qilinganda respondentlarning 485 nafari (41,1 %) amalga oshiriladigan turizm sohasida ko‘rsatiladigan xizmatlardan foydalanishda oila bilan, 400 nafari (33,9%) do‘stlari bilan, 190 nafari (16,1%) tashkil etilgan guruhlardan bilan, 105 nafari (8,9%) yolg‘iz ishtirok etishga xohish bildirgan.

Turizm xizmatlarini iste’mol qilish taklifining ortishi, albatta, oilalarning real daromadlari va imkoniyatlari bilan bog‘liq. So‘nggi yillarda aholi daromadlarining ortishi natijasida insonlarning sayohat qilishlari uchun xohish va imkoniyatlar darajasi yaxshilanib bormoqda. Bu esa turizm sohasida ko‘rsatiladigan xizmatlarga nisbatan iste’mol darajasining ortib borishini ko‘rsatadi. So‘rovnomalar orqali sayohatlar uchun sarflanadigan daromadlar ulushi o‘rganilganda respondentlarning 460 nafari (39%) oilaviy jamg‘armasining 10 % ini, 330 nafari (28 %) daromadlarining 15 % ini, 180 nafari (15,3 %) jamg‘armasining 15% dan ortig‘ini, 210 nafari (17,8 %) daromadlarini umuman sarflay olmasliklari aniqlangan. (3.3-jadval). So‘rovnomalar natijalarini respondentlar tomonidan ideal fikrlar natijasida aniqlanganligini inobatga olsak, ayrim hududlarda natijalar o‘zgarishi va shunga ko‘ra bu natijalar turizm sohasiga nisbatan ehtiyojning shakllantirilishiga asos bo‘lmasisligi mumkin. Lekin umumiy holatda, turizm xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni yo‘nalishlar va xizmatlar xususiyatlari jihatidan shakllantirish, shu yo‘nalishda choratadbirlar, hududiy va mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilishida xizmat qiladi. O’tkazilgan so‘rovnomalar natijalariga tayangan holda turistik xizmatlar bozoridagi talabni o‘rganish, sayyoohlarning xohish va istaklaridan kelib chiqib ularning imkoniyatlari va daromadlarini to‘g‘ri baholash taklif etilayotgan xizmatlar hajmining realligini ta‘minlaydi hamda mamlakatimizda turizm madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yurtimiz va dunyo mamlakatlari turistik qonunchiligining o‘rganilishi shuni ko‘rsatmoqdaki, ba’zi turistik sohani idora etuvchi holatlar ilgari yurtimiz qonunchiligidagi ko‘rsatilmagan, ya’ni, turistik dasturning amalga oshirilish kafolatlarini yaratish, professional turistik kadrlar tayyorlash uchun

FALSAFA

malakaviy talablar ishlab chiqarilishi va ularning turistik firmalarni liitsenziyalash me'yorlariga kiritilishi, turistik xizmatlar reklamasining haqiqatga muvofiqsizligi uchun javobgarlikni bildiradi.

3-jadval

Turizm xizmatlariga bo'lgan talabni xizmatdan foydalanuvchilar guruhi va sarflanadigan daromadlar ulushi bo'yicha so'rvonoma natijalari

Yosh guruhlari	Soni	Xizmatdan foydalanuvchilar guruhi				Sarflanadigan daromad ulushi			
		Oila	Dostlari	Guruh	Yolg'iz	10%	15%	15% dan ortiq	Sarifay olmayan
Jami respondentlar	970	485	400	190	105	460	330	180	210
30 yoshgacha	595	160	285	95	55	230	150	70	145
shundan:									
Erkak	315	35	215	30	35	125	75	45	70
Ayollar	280	125	70	65	20	105	75	25	75
31-40 yoshgacha	200	105	60	20	15	90	60	35	15
shundan:									
Erkak	100	50	40	15	10	35	30	30	5
Ayollar	100	55	20	5	5	55	30	5	10
41-50 yoshlar	205	130	35	25	15	60	80	30	35
shundan:									
Erkaklar	90	40	20	20	10	15	35	10	30
Ayollar	115	90	15	5	5	45	45	20	5
50 yoshdan yuqori	180	90	20	50	20	80	40	45	15
shundan:									
Erkak	85	50	5	20	10	40	15	20	10
Ayollar	95	40	15	30	10	40	25	25	5

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Oliy O'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'lim vazirligi, Yoshlar Ittifoqi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi, "Mahalla" xayıriya jamoat fondi, Xotin-qizlar qo'mitasi, hamda Nuroniy jamg'armasining aholi guruhlari uchun mamlakatimiz hududlarida turizm-ekskursiyaning turlari tashkillangan. Ushbu hududlarda 970 nafar respondentni jalb qilgan holda so'rvonoma o'tkazildi. O'tkazilgan so'rvonoma natijalari mamlakatimiz hududlariga tashrif buyuradigan turistlarning (ichki va xorijiy) talab va taklif munosabatlari hisobga olgan holda quyida milliy bayramlar, ta'til vaqtida hamda turizm mavsumi sust bo'lgan davrda;

– fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muxtoj aholi qatlamlari, nafaqaxo'rlar, mehnat fahriylari, jahon urushida qatnashuvchilar sog'lig'ini tiklash uchun kurortlardan dam olishdan unumli foydalanish;

– nuroniylar, mahalla fuqaro yig'inlari faollari, yosh oilalar, xotin-qizlar uchun turizm faoliyatining sust bo'layotgan davrda ichki turizmni rivojlantirishga yana-da e'tibor qaratish alohida ta'kidlandi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldag'i «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»[12]gi qarori mamlakatimizda mavjud turizm resurslaridan foydalanish imkoniyatini yana-da oshirdi hamda turizmni xususiy sherikchilik asosida rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Mazkur qarorning yana bir o'ziga xos tomoni shundan iboratki, endilikda har bir xo'jalik subyekti qayd etilgan qaror asosida o'z xodimlarini qiyalmasdan turistik sayohatlarga chiqarish imkoniyatiga, pirovardida esa mehnat unumdorligi oshishiga xizmat qiladigan qulay imkoniyatga ega bo'ldi. Qaror kelajakda davlat tekshiruv organlari tomonidan korxona rahbariyatini behuda bezovta qilinishining oldini olishga xizmat qilishi tayin. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy muammoni qonuniy hal qilish hisobiga korrupsiyadan holi bo'lish imkoniyatiga ega bo'lindi.

2019-yil 5-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»[13]gi Farmonda asosiy e'tibor xorijlik va mahalliy turistlar hamda turizm sohasida bevosita rivojlanayotgan turizm turlaridan biri bo'lgan, ko'ngilli ravishda hech qanday manfaatni ko'zda tutmagan holda, volontyorlik tashkilotlariga uyushgan holda ko'ngillilik dasturlariga qatnashish hisoblanadi. Turistlarni jalb etishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omil – sohaga malakali kadrlar xizmat qilishidir. Shu bois, farmonda kadrlar taylorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish hamda oliv ta'llimdan keyingi ta'llimni takomillashtirish kerakligi aytib o'tilgan. Shuningdek, turizmni rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan aeroport xizmatini jadallashtirish farmonning asosiy masalasidan joy olgan. Madaniy almashinuv doirasida turistlarga xizmat ko'rsatadigan transport logistikasi xizmatini davr talabiga mos ravishda faollashtirish va sifatini izchil oshirib borishga e'tibor qaratilgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki so'nggi yilda birgina turizmni qulaylashtirish, muvofiqlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan qariyb 10 dan ortiq me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Davr talabidan kelib chiqan holda, bu jarayon izchil davom etishi tabiiy hol. Bunday deyishga ta'sir etgan bosh omil shuki, bizda turizmni rivojlantirishga obyektiv zarurat tug'ilgan bo'lsa-da, ammo yillar mobaynida bu soha o'z holiga tashlab qo'yilgan edi. Bu sohadagi o'zgarishlar, yangilanishlar istiqbolli rejalar asosida amalga oshirilishi natijasida pirovard natijaga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prezident hukumat a'zolari bilan uchrashuvda 2020 yil uchun muhim vazifalarni belgilab берди.31.12.2019.(In a meeting with members of the government, the President defined important tasks for 2020. 12.31.2019.)
2. Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов управление региональным туризмом: Дис.... док. экон. наук. – Ташкент, 2011; Файзибаева Н.Т. Европа как один из важнейших туристических центров мира // Международные отношения: политика, экономика, право. №4.2012: – С. 60; Голышева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирование развития туризма в рыночных условиях. Дис....канд.экон.наук. – Ташкент, 2012. – С.176; Рахимова Н.Р. Особенности формирование стратегия маркетинга на рынке туристических услуг: Дис.... канд. экон. наук. – Ташкент: 2010. – С. 166. (Turaev B. Kh. Development of organizational and economic mechanisms for regional tourism management: Dis.... doc. econ. Sci. – Tashkent, 2011; Fayzibaeva N.T. Europe as one of the most important tourist centers in the world // International relations: politics, economics, law. No. 4.2012: – P. 60; Golyshova E.V. Improving the organization and mechanism for regulating the development of tourism in market conditions. Dissertation....candidate of economic sciences. – Tashkent, 2012. – P.176; Rakhimova N.R. Features of the formation of a marketing strategy in the tourism services market: Dis.... Cand. econ. Sci. – Tashkent: 2010. – P. 166.)
3. UNWTO Tourism Highlights. 2017. – P. 2
4. Global report on the power of youth travel. Affiliate members report. Volume thirteen. – P. 10
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 28 dekabr 2018 yil. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 39. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 28 dekabr 2018 yil. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 39.)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016 yil 2 dekabrdagi PF-4861-sonli Farmoni.(Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4861 of December 2, 2016 "On measures to ensure rapid development of the tourism sector of the Republic of Uzbekistan".)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining turizmni jadal rivojlantirishga qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni. Qonunhujjalrima'lumotlarimillybazasi, 06.01.2019 y., 06/18/5611/2430-s. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5611 dated January 5, 2019 "On additional measures for the rapid development of tourism in the Republic of Uzbekistan". National database of legal documents, 06.01.2019, No. 06/18/5611/2430.)
8. UNWTO – WYSE 2011, The Power of Youth Travel, Volume 2 Available <http://florianopoliscvb.com>. br/MyFiles/amreports_vol2_thepowerofyouthtourism_eng_lw.pdf Accessed: 11-02-2014.
9. UNWTO – WYSE 2011, The Power of Youth Travel, Volume 2 Available <http://florianopoliscvb.com>. br/MyFiles/amreports_vol2_thepowerofyouthtourism_eng_lw.pdf Accessed: 11-02-2014.
10. Dynamics of the youth travel market on a global level, Bulletin of the Transilvania University of Braşov, Series V: Economic Sciences • Vol. 8 (57) No. 1 - 2015
11. <https://lex.uz/docs/3551112> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-sod qarori(<https://lex.uz/docs/3551112> Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2018 PQ-3514)
12. <https://lex.uz/docs/3551112> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoni(<https://lex.uz/docs/3551112> Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 5, 2019 No. PF-5611)